

DORIVOR O‘SIMLIKLARNING TURLI KASALLIKLARNI DAVOLASHDAGI O‘RNI

O’ljayeva Madina Xaydarali qizi

Mamatova Gulrux Yo’ldashboy qizi

Ish joyi Olmaliq Abu Ali ib Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

Annotatsiya:

ushbu maqola dorivor o‘simliklarning inson hayotidagi o‘rni va hususiyati haqida ma’lumotlar berilgan. Unda inson salomatligi va sog‘ligi uchun foydali o‘qimliklar va ularning turlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘simliklar, Abu Ali ibn Sino, mehriгиyo salomatlik markazi, rayhon, ismaloq va bsh.

Qadimdan sharq xalqlari dorivor o‘simliklardan unumli foydalanib, giyoh bilan davolashni hadisini olgan. Xalq tabobati ajdodlarimiz yashagan o‘lkalarda keng rivojlangan.

Buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino mamlakatimizda o‘sayotgan 47 ga yaqin o‘simliklarning shifobaxsh xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumot keltirgan. Ibn Sino yaratgan asardagi shifobaxsh o‘simliklardan dori tayyorlash va ulardan kasalliklarni davolashda foydalanish usullari to‘g‘risidagi qimmatli ma’lumotlardan nafaqat o‘z xalqimiz balki butun dunyo ahli foydalanib keltirgan. Biroq keyingi yillarda dorivor o‘simliklardan oqilona foydalanish, ularni shifobaxshlik xususiyatlarni o‘rganish va tabobatga qo‘llash keskin kamayib ketdi. Qancha-qancha maydonidagi shifobaxsh o‘simliklarimiz nazoratisiz qoldi.

Ammo mustaqillikning sharofati ila, prezidentimiz say-xarakatlari va shu soxaga bergen e’tiborlari, 2020-yil 10-apreldagi “Yovvoyi holda o‘suvchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish madaniy xolda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish” chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori shifobaxsh o‘simliklarni qaytadan o‘rganish ularni ko‘paytirish, xalq tabobati udumlarini zamonaviy farmosevtika bilan uyg‘unlashgan xolda ishlab chiqarish imkoniyatlarini yanada kengaytirish istiqbolini belgilab berdi.

Ayni paytda yurtimizda 4 ming 300 dan ortiq turdag'i o'simlik ro'yxatga olingan. Ularning 750 turi shifobaxsh xususiyatiga ega. 122 tur o'simlik ilmiy tibbiyotga foydalanish uchun yaroqli xisoblanadi. Mustaqillikning e'tirof etishga mintaqamizga yetishirilgan dorivor o'simliklarning shifobaxshligi bosh hududlardagiga qaraganda ancha yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Mehrigiyo korxonasi 100 % tabiiy dorivor o'simliklardan foydalaniladi.

Mehrigiyo 1992-yil salomatlik bog'i doktor Ali klinikasi nomini olgan.

Mehrigiyo Farg'ona viloyati Qo'qon shahri Orzu mernan ko'chasi 94-uy Uchko'prik tumanida joylashgan. Mehriyodagi ba'zi o'simliklar bilan tanishib chiqamiz. Qoqio't (momaqaymoq) ning foydali xususiyatlari Qoqio'tning bargi va ildizida achchiq gilikazitlar trakseral birikmalari bor. Abu Ali ibn Sino jigar va istisho kasalligiga qo'llagan. Qoqio'tning ildizi bargi poyasidan tayyorlangan damlama jigar va o'tsiyidik haydovchi hamda ishtahani ochuvchi qonni tozalovchi shuningdek surgid ori sifatida ishlatilinadi. Qaynatilgan damlamasi oshqozonda xlorit kislota yetishmasligi sababli rivojlanadigan gastrid podakra va teri kasalliklarida eng yaxshi shifo vositasidir. Bazan damlamasi tinchlantiruvchi vositasi sifatida ishlatilsa yangi uzilgan qoqi bargi shirasi kamqonlik, quvvatsizlik va ko'krak sohasi og'riganda eng yaxshi davo bo'ladi.

Mamlakatimizda yalpizning qora, osiyo suv, qalampir turlari bor. Yalpizning bargi va poyasining qaynatilgan damlamasidan tish og'rig'i, milk yalliglanishiga davo bo'ladi. Abu Ali ibn Sino ichak og'riqlarini davolashda qabziyat ovqatni yaxshi hazm qilishda tavsiya etgan. Meda ichak yo'li spazmi sariq kasalligi vabo silda davolangan zamonaviy tibbiyotda yalpizning og'riq qoldiruvchi yalliglanishga qarshi kurashuvchi jigildon qaynashi qorin dam bo'lishida yordam beradi. Shuningdek safro haydovchi hamda jigmarni tozalovchi angina gripp qiyinayotgan bo'lsa yordam beradi. Yalpizning quritib qaynatilgan damlamasi ko'ngil aynishini oldini oladi.

O'smaning foydali xusussiyatlari. O'smaning yangi uzilgan bargi istemol qilinsa sahr yani qandli diabet kasalligi bilan kasallangan odamlar har kuni ertalab istemol qilinsasahr pasayadi va oshib ketmaydi. O'smaning so'llitilgan bargidan olingan suvi soch kiprik qoshfa surtilsa to'kilishni oldini oladi. Qosh kiprikda kiprik va qosh biti bo'ladi. Shuning uchun qosh kipriklar to'kiladi. O'smaning suvi qosh kiprik



bitlarini o‘ldirish xususiyatiga ega. O‘smaning suvi ko‘zning ravshan va tiniq ko‘rishi ni ta’minlaydi.



Ayniqsa o‘lkamizda yaxshi o‘sishga moslashgan shifobaxsh o‘simliklardan moychechak, arslonquloq, choy o‘ti, tog‘ rayhon, zubturum, kiyik o‘ti, namatak, gulxayri, do‘lana, jag‘-jag‘ qadimdan tabobat gultoji hisoblangan.



Davlatimiz rahbarining yuqoridagi qarori shifobaxsh giyohlarga oid bunday siyosati o‘simlik turlarini munosib o‘rganish, yo‘qolib ketayotgan yovvoyi xoldagi dorivor o‘simliklarni ximoya qilishni kuchaytirish o‘quvchilarga o‘simliklarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish va ularni chuqurroq o‘rganish ma’sulyatini mamlakatimiz axliga ega tabobatni yo‘lga qo‘yish va o‘simliklar tabiiy zaxiralarini yaratuvchi imkonini berdi. Bir so‘z bilan aytganda bu soxaga berilayotgan e’tibor



**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

Date: 1st February, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

mamlakatimizning qimmatli dorivor o'simliklar bazasini yaratish va ulardan munosib foydalanish qayta ishlash bilan bogliq biznesni yo'lga qo'yish xalq tabobatining an'anaviy maxsulotlaridan samarali foydalanishga sharoit yaratmoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar

- 1.Biologiya uslubiy qo'llanma. Qo'qon. 2014.
- 2.Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" to'plami.
- 3.Biologlar jurnalı. 5-son. 2021.
- 4.WWW.ziyonet.com.